

Klinik laborator diagnostikada innovatsion texnologiyalardan foydalanish, muammolar va yechimlar, 2023



**KLINIK LABORATOR
DIAGNOSTIKADA INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH, MUAMMOLAR VA
YECHIMLAR**
**xalqaro ilmiy-amaliy
anjuman**
18 aprel 2023 yil



O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi

WWW.SSV.UZ

Toshkent tibbiyot akademiyasi WWW.TMA.UZ

Raximberganov S.R., Raximova F.B. Klinik laborator diagnostika va informatika texnologiyalari uyg'unlashuvi-zamon talabi	354
Saidov A.B., Madolimov A.M. Donor qonining yaroqsizlik sabablarini o'rganish	355
Saidov.A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E. Qon komponentlarida bioximik ko'rsatkichlar laborator tashxisi	357
Saidvaliev F.S., Subxanova A.X. Migren va zo'riqish bosh og'rig'i bilan tashxislangan bemorlarda depressiya darajasini aniqlash	358
Saidvaliyev F.S, Subxanova A.X "Migren Pro" mobil ilovasini migren tashxisi qo'yilgan bemorlarda samaradorligini baholash	359
Samatova L.D., Bobojonova Sh.D. Donorlarda gemotransmissiv torch infeksiyalar	359
Samatova M.G'. Vitamin B ₁₂ laborator tahlili va klinik ahamiyati	362
Sayfutdinova.Z.A., Yodgorova K.P. Ayollar salomatligi uchun qondagi temirning ahamiyati	363
Sayfutdinova Z.A., Yodgorova K.P. Ayollarda gemoglobin darajasini aniqlash ahamiyati	364
Sayfutdinova Z.A., Valijonova M.S. Homiladorlik davrida toksik gepatit kechishining ahamiyati	366
Sayfutdinova Z.A., Hidoyatova M.D. Laboratory diagnostics of salts in urine analysis	367
Sayfutdinova Z.A., Khidoyatova M.D. Normative indicators of urine analysis	369
Sayfutdinova Z.A., Xidoyatova M.D. Peshob tuzlarining laborator diagnostikasi	370
Sayfutdinova Z.A., Xidoyatova M.D. Laboratoriyada vakutaynerlardan foydalanish	371
Sayfutdinova Z.A. Peshobni tayyorlashning umumiy qoidalari	373
Sayfutdinova Z.A. Zimnitskiy sinamasi uchun ko'rsatmalar	375
Sayfutdinova Z.A., Xidoyatova M.D. Ikki va uch stakanli sinamalar ...	376
Sayfutdinova Z.A. Peshobdagi diastaza va shaklli elementlar miqdorini o'rganish uchun yig'ish	378
Sayfutdinova Z.A. Peshobdagi diastaza va shaklli elementlar miqdorini o'rganish uchun yig'ish	379
Sayfutdinova Z.A. Reberg sinamasi uchun peshob yig'ish va saqlash qoidalari	381

QON KOMPONENTLARIDA BIOXIMIK KO'RSATKICHLAR LABORATOR TASHXISI

Saidov.A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E.
Toshkent Tibbiyot Akademiyasi

Qon tarkibiy qismlarini quyish ixtisoslashtirilgan va ko'p tarmoqli shifoxonalarda qo'llaniladigan yuqori texnologik tibbiy yordam xisoblanadi. SHU bilan birga, qon quyish terapiyasi uchun zamonaviy sifat va xavfsizlik talablariga javob beradigan qon tarkibiy qismlaridan foydalanish majburiy va shartdir. Oxirgi 10 yillarda yangi tibbiy texnologiyalarning oshishi natijasida klinik transfuziologiya imkoniyatlari oshdi.

Qon preparatlarining yaroqsizligini baholashda gemotransmissiv infeksiyalar, bioximik ko'rsatkichlar, xilyoz, gemoliz, fibrinoliz holatlari baholanadi.

Tadqiqot maqsadi. 2019-yil mobaynida qon preparatlarida bioximik ko'rsatkichlar retrospektiv tahlilini o'tkazish.

Materiallar va tadqiqot usullari. 2019-yilda Respublika miqyosida qon preparatlarini bioximik ko'rsatkichlarga tekshirildi. Bioximik ko'rsatkichlardan alaninaminotransferaza (ALT), AST, bilirubin bioximik usulda Mindray BA-88A bioximik analizatorida, Human (Germaniya) reagentlarini qo'llagan holda tekshirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida 7372 ta qon preparatlari tekshirildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, 912 (12,3%) ta preparatda alaninaminotransferaza miqdori baland, 198 (2,6%) ta qon preparatida umumiy bilirubin miqdori yuqori, xilyozga uchragan qon preparatlari esa 528 (7,1%) tani, gemoliz bo'lgan qon preparatlari esa 25 (0,33%) tani, fibrinoliz bilan esa 7 (0,09%) ta aniqlangan, giperxolesterinemiya bilan 5 (0,06%) tani tashkil qilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, 7372 ta qon preparatlardan 1675 tasida bioximik ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgarganligi aniqlangan.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, donordlarda qon preparatlari tayyorlanayotganda alaninaminotransferaza, umumiy bilirubin va giperxolesterinemiya bioximik ko'rsatkichlarini tekshirish ahamiyatga ega va tavsiya etiladi. Qon preparatlarini tayyorlashda xilyoz, gemoliz va fibrinoliz bo'lmasligiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar.

1. Саидов А.Б., Курбонова З.Ч., Сайфутдинова З.А., Шомансурова Г.Е. Қон компонентларида биохимик кўрсаткичлар лаборатор ташхиси // Замонавий клиник лаборатор ташхиси долзарб муаммолари. – 2022. – Б. 158-159.

2. Саидов А.Б. и др. Современные принципы обеспечения инфекционной безопасности компонентов крови // Journal Of Innovations In Scientific And Educational Research. – 2023. - № 2 (16). – С. 136-141.

3. Kurbonova Z.Ch., Madrahimov A.L., Tashboev A.S. Characteristics syndrome cytopenia in patients with liver cirrhosis of viral etiology B and C //Ёшолимларкунлари. – 2015. – В. 192-193.

4. Kurbonova Z.Ch., Babadjanova Sh.A. Violations of coagulative hemostasis in patients with liver cirrhosis of the viral etiology // //European science review. – 2018. – №. 7-8. – C. 128-130.
5. Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E. Laboratory diagnosis of hemotransmissible infections in blood components // Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari. – 2022. - B. 71-73.
6. Saidov A.B., Kurbonova Z.Ch., Sayfutdinova Z.A., Shomansurova G.E. Qon komponentlaridagi gemotransmissiv infeksiyalarning laborator tashxisi // Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari. – 2022. - B. 44-45.
7. Saidov A.B. et al. Modern Principles of Ensuring Blood Component Infection Safety // Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Vol. 18. – P. 44-48.
8. Saidov A.B. va b. Donorlarda gemotransmissiv infeksiyalarning diagnostika usullarini takomillashtirish // Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali. – 2023. - №2. – B. 241-245.
9. Saidov A.B. va b. Qon komponentlarida bioximik ko'rsatkichlar laborator tashxisi // Zamonaviy klinik laborator tashxisi dolzarb muammolari. – 2022. – B. 158-159.
10. Babadjanova Sh.A., Курбонова З.Ч. Qon kasalliklari: o'quv qo'llanma. 2023, 156 b.

MIGREN VA ZO'RIQISH BOSH OG'RIG'I BILAN TASHXISLANGAN BEMORLARDA DEPRESSIYA DARAJASINI ANIQLASH

**Saidvaliev F.S., Subxanova A.X.
Toshkent tibbiyot akademiyasi**

Tekshiruv maqsadi: migren va zo'riqish bosh og'rig'i bo'lgan bemorlarda depressiya darajasini aniqlash.

Tadqiqot usullari va materiallari. Nazoratimizda migren kasalligi bilan 25 ta, zo'riqish bosh og'rig'i bilan 25 ta bemor kuzatuvimizda bo'ldi. Ularning yoshi 20-55 yoshgacha (o'rtacha $37,8 \pm 9,9$), migren bilan tashxislangan ayollar 18 ta (72%), erkaklar 7 ta (28%). Zo'riqish bosh og'rig'i tashxisi bilan ayollar 14 ta (56%), erkaklar 11 ta (44%). Barcha 50 nafar bemorda quyidagi tekshiruvlar o'tkazilindi: klinik nevrologik, MRT, EEG, depressiya va havotir darajasini baholash uchun PHQ-9 shkalasidan foydalanildi.

Natija. Klinik-nevrologik tekshiruv dinamikada olib borildi. MRT-xulosasiga ko'ra nazoratimizdagi barcha bemorlarning 64% da bosh miya qon tomirlar ensefalopatiyasi kuzatildi, 36% da bosh miyaga aloqador patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. EEG tekshiruvida barcha bemorlarda bosh miyada umumiy o'zgarishlar aniqlandi. PHQ-9 shkalasi bo'yicha migren kasalligida depressiyaning yengil darajasi 9 ballni, o'rta og'irlikda 13,8 ball, og'ir darajasi bilan 20,2 ballni tashkil etdi. Zo'riqish bosh og'rig'i bo'lgan bemorlarda yengil darajadagi depressiya 5,3 ball, o'rta og'irlikdagi depressiya 10,8 ball, og'ir darajadagi depressiya 15,4 ballni tashkil etdi.

Xulosa. Olingan natijalarga ko'ra zo'riqish bosh og'rig'i bilan kasallangan bemorlarga qaraganda migren kasalligida depressiyaning yengil, o'rta og'ir va